

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1**



Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Адабиётшунослик

1. Rahmonqulova Zarnigor

DISTOPIK EKZISTENSIALIZMNI INGLIZ YOZUVCHISI UILYAM GOLDINGNING "LORD OF THE FLIES" ROMANIDA AKS ETISHI.....6

2. Усманова Севара

ЧЎЛПОН ВА С.РИЧАРДСОН РОМАНЛАРИДА БАДИИЯТ МУАММОЛАРИ.....14

3. Yusupova Dildora

SHOIR SO‘Z AYTGANI KELAR DUNYOGA...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo‘liga chizgilar).....21

4. Қўчқорова Садоқат

ФОЛЬКЛОРДА ЭРТАКНИНГ ЖАНР СИФАТИДАГИ ХУСУСИЯТИ.....28

5. Мажитова Сабоҳат, Ярашов Шариф

АМИР ХУСРАВ ДЕҲЛАВИЙ ВА АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА «ДИЛ» (ЮРАК, ҚАЛБ) ТИМСОЛИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК МАЙДОНИ.....35

6. Джалилова Зарнигор

ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ.....42

Лингводидактика

7. Khamzaev Sobir, Gilyazetdinov Eldar

THE PRINCIPLES OF SPEAKING SKILLS' FORMATION AMONG STUDENTS OF LINGUISTIC UNIVERSITIES.....48

Тилшунослик

8. Boygucheva Lola

THE ROLE OF DISCOURSE ANALYSIS IN MODERN LINGUISTIC THEORY.....54

9. Кобилова Азиза

ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКЛАР ЎРНИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ПЕРИФРАЗЛАР ТАҲЛИЛИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....59

10. Mamanazarova Gulhayo, Paluanova Halifa

ISSUES ON OIL AND GAS TERMINOLOGY IN LINGUISTICS.....65

11. Melikova Elnora, Abdullayeva Nargiza

PRIMARY AND SECONDARY PREDICATION.....71

12. Saidova Farida

O‘ZBEK TILI LEKSIK SINONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI.....77

13. Turniyazov Behzod

FAKTIVLIK ASOSIDAGI KAUZATSIYA.....83


14. Гафуров Бахтиёр АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	91
15. Ибаев Анвар КОМПАРАТИВ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИЛИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА.....	97
16. Исмаилов Тургун ПРЕЗИДЕНТ ДИСКУРСИДА HOMELAND КОНЦЕПТИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ОРҚАЛИ ТАСАВВУР ЭТИЛИШИ (FREEDOM, LIBERTY ҚАДРИЯТИ МИСОЛИДА).....	103
17. Камолитдинова Вазира ОКСЮМОРОН ВА УНИНГ УСЛУБИЙ - СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	111
18. Нигматова Лолахон ЎЗБЕК ТИЛИ МАХСУС КОРПУСЛАРИ – ТИЛ ВА МАДАНИЯТ МУШТАРАКЛИГИНИ ЎРГАНИШ ВОСИТАСИ.....	116
19. Сабирова Ёъзоа ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРИДА ЎЗЛАШМА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАР ТАЛҚИНИ.....	121
20. Сулаймонова Нигора ЗАМАХШАРИЙ ГЎЗАЛ НУТҚ ВА САБР ОДОБИ ҲАҚИДА.....	130
21. Тўева Зулфия, Юлдашева Дилором БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА.....	137
22. Xolova Muyassar BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA).....	146
23. Abdullayeva Oqila Holmo'minovna O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISH BOSQICHLARI VA MUAMMOLI JHATLARI....	153
24. Abdunazarova Zarina Islomovna THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE.....	159
25. Nilufar Abduraxmonova O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISHDA LINGVISTIK ANNOTATSIYALASH TAMOIILLARI.....	164
26. Shamuradova Naima O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING QIYOSIY O'RGANILISHI HAQIDA (ASOSIY QISMLARINI QO'LLASH).....	171
27. Яхёева Гулнора Бахтиёровна ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.....	175

28. Irgasheva Umida INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI.....	179
29. Jumaniyozova Nuriya Axmedovna YURIDIK DISKURS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	184
30. Khayitova Feruza Abdikhalikovna THE PRACTICAL ANALYSIS OF TOPONYMS IN GREAT BRITAIN BASED ON THE STORY OF A. CONAN DOYLE "THE HOUND OF THE BASKERVILLES".....	188
31. Z. Masodiqova, Sh. Xatamqulova O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINI QIYOSHLASH.....	193
32. Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich, Axmadjonova Mohinur Bahodirovna SON SO'Z TURKUMINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH.....	193
33. Maxmurova Mavjuda Halimovna METAFORALAR NUTQ SHAKLI SIFATIDA.....	204
34. Nazarov Rustam Irkinovich THE IMPORTANCE OF PAIR WORK AND GROUP WORK ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL UNIVERSITIES.....	210
35. Saidbekova Raykhona Rustambekovna, Ruzmatova Dilnoza Ramatjonova FAMILY PERSPECTIVES IN THE NOVEL "AND THE MOUNTAIN ENCHOED" BY KHALED HUSSEINI.....	217
36. Алижон Раҳматович Қосимов, Хумора Муҳаммадиса қизи Иминова ТИЛНИНГ БИОПСИХОСОЦИАЛ ОНТОЛОГИК МАҚОМИ МУАММОЛАРИ.....	222

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Jumaniyozova Nuriya Axmedovna,
Tayanch doktorant,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
jumaniyozovanuriya@gmail.com

YURIDIK DISKURS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-29>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola “diskurs” va “diskursiv tahlil” tushunchalariga oydinlik kiritish va tahlil qilish to'g'risida bo'lib, dastavval, bir qancha tilshunos olimlar fikrlarini muhokama qiladi. Ma'lumki, “diskurs” leksemasi haqida ko'plab qarashlar mavjud bo'lsada, hali hanuzgacha to'liq yoritib berilmagan mavhum tushuncha sifatida bo'lib qolmoqda. Shuningdek, yuridik sohani yanada rivojlantirish, yurisingvistika fanini ham yurtimizda keng tarqalishiga hissa qo'shish ushbu mavzuni dolzarbligini ko'rsatadi. Til va huquq sohalari esa bir-biriga uzviy bog'liqdir, chunki yuridik bilimni rivojlantirish, qonun va normalarni tahlil qilish, avloddan-avlodga yetkazish va xalqning huquqiy ongini oshirishda tilshunoslikni huquqshunoslik bilan bog'lashga to'g'ri keladi. Shunday ekan, ushbu yo'nalishning diskursiv tahlili ham tadqiqotimizning asosiy masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: diskurs, diskursiv tahlil, yuridik diskurs, huquqshunoslik, til, ijtimoiy muhit, kommunikativ harakat, gap, tushuncha

Жуманиёзова Нурия Ахмедовна,
Докторант, Узбекский государственный
университет мировых языков,
jumaniyozovanuriya@gmail.com

ЮРИДИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена прояснению и анализу понятий «дискурс» и «дискурсивный анализ» и вначале обсуждает точки зрения ряда лингвистов. Очевидно, что, несмотря на то, что существует множество взглядов на лексему «дискурс», она все еще остается абстрактным понятием, которое не было полностью выяснено. Также дальнейшее развитие юридической сферы, вклад в распространение юриспруденции в нашей стране показывает актуальность этого вопроса. Области языка и права неразрывно связаны, так как необходимо связать лингвистику с юриспруденцией в развитии юридических знаний, анализировать законы и нормы, передавать их из поколения в поколение и повышать правовое сознание людей. Поэтому дискурсивный анализ этой сферы - одна из основных задач нашего исследования.

Ключевые слова: дискурс, дискурсивный анализ, правовой дискурс, юриспруденция, язык, социальный контекст, коммуникативный акт, речь, концепт

Jumaniyozova Nuriya Axmedovna,

PhD student, Uzbek State University of World Languages,
jumaniyozovanuriya@gmail.com

LEGAL DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

ANNOTATION

This very article is devoted to the clarification and analysis of the concepts of “discourse” and “discursive analysis” and, initially, discusses the viewpoints of a number of linguists. It is evident that even though there are many views on the lexeme of ‘discourse’, it still remains as an abstract concept that has not been fully elucidated. Also, the further development of the legal realm, the contribution to the spread of jurisprudence in our country shows the actuality of this issue. The fields of language and law are inextricably linked, as it is necessary to connect linguistics with jurisprudence in the development of legal knowledge, analyze laws and norms, transmit them from generation to generation, and raise the legal awareness of the people. Therefore, the discursive analysis of this sphere is one of the main targets of our research.

Key words: discourse, discursive analysis, legal discourse, jurisprudence, language, social context, communicative act, speech, concept

Kirish. Barchamizga ma'lumki, til bu jamiyat tarixi, uning o'tmishi va buguni haqida so'zlovchi asosiy vosita bo'lib, insoniyat va jamiyat taraqqiyotini belgilab beradigan omillardan biridir. Til orqali biz bir-birini anglash, ongli fikrlash, voqelikni tirik dunyoni to'liq tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz (Sh. Safarov,3). Hozirgi kunda chet tillari bilan birga davlat tilini o'rganish, davlat tilida ish yuritish va uni yanada takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev farmoniga binoan 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritilganligi va mamlakatimizda ijtimoiy sohaning barcha sohalarida, jumladan sanoat, bank-moliya tizimi, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va shu qatori huquqshunoslik sohasida ham davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishdek masalasini qo'yilganligi buning yorqin isbotidir.

Tillarni o'rganish va tahlil qilish tilshunoslik sohasining ustuvor vazifasidir. Chunki, til jamiyatimizning barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liqdir, shu jumladan yuridik sohada ham faoliyat olib borish, davlat xizmatlarini amalga oshirish va qonunlar bilan ishlashda ham tilning imkoniyatlaridan keng foydalanishga to'g'ri keladi. Inson paydo bo'liboq, til orqali o'z fikrlarini ifodalashga ehtiyoj sezganidek, jamiyat ham tartib-intizom, to'g'rilik va halollik qonun-qoidalari ustun bo'lgan tizimga tayinishga harakat qiladi. Huquqshunos olim P. Verhovskiy ham “Til va huquq tushunchalarining jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra ko'plab o'xshashliklarga ega ekanligi va til fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi ekanligi“ ni eslatib o'tadi(58). Sh. Ko'chimov esa til huquqning, ya'ni yuridik sohaning rivojidagi o'rnini quyidagicha baholaydi:“Til huquqshunoslar o'rtasida o'zaro aloqa almashish, yuridik bilimlarni avloddan-avlodga yetkazish, huquqiy ongni rivojlantirish va huquqiy normalarni fuqarolarga yetkazishdek muhim ahamiyatga egadir“(9). Ushbu fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki,“til va qonun“, “yuridik til“, “qonun tili“ va “yuridik nutq“ kabi tushunchalar bejizga paydo bo'lmagan. Shuning uchun ham ushbu yo'nalishni lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini o'rganish va diskursiv tahlil qilish tadqiqotimizning asosiy maqsadidir. Shu o'rinda diskurs va diskursiv tahlil tushunchalariga oydinlik kiritib olsak.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan lisoniy birliklar bilan bir qatorda nolisoniy (pragmatik, ruhiy, ijtimoiy-madaniy) omillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish tilshunoslikda “diskurs“ atamasini kengroq o'rganilishga olib keldi va diskurs lingvistika bilan bir qatorda sotsiologiya, kulturologiya, pedagogika, pragmalingvistika, psixolingvistika va yurispuridensiya sohalarining ham o'rganish

obyektiga aylandi. Diskurs leksemasi lotin tilidan (discursus) kirib kelgan bo'lib, "harakat", "aylanish", "suhbat", "muloqot" degan ma'nolarga ega. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, diskurs lingvistik termin sifatida ishlatilgunga qadar asosan mantiqiy va epistemologik (falsafaning "bilim" haqidagi sohasi) jihatdan sharhlangan va uni birinchilardan bo'lib izohlagan tilshunoslardan biri F. Sossyurning izdoshi fransuz lingvisti Emile Benveniste bo'lib, u F.Sossyur tomonidan kiritilgan til sistema (langue) sifatida va til nutq sifatida (parole) oppozitsiyalarini ma'qullamaydi va nutq (parole) so'zining o'rniga diskurs atamasini kiritib, til va diskurs oppozitsiyalarini qo'llashni taklif etadi. U, shuningdek, til va diskurs birliklarini farqlagan ilk tilshunos olimlardan biridir. Uning fikricha "diskurs" gapning yuqori turadigan sathi bo'lib, har doim voqea-hodisa sifatida namoyon bo'ladigan so'zlovchi nutqi orqali faollashadigan diskret (alohida) harakat" dir (Peter Goodrich, 1992: 135). "Diskurs" lingvistik termin sifatida fanga birinchi bo'lib 1952-yilda amerikalik olim Z. Harrisning "Discourse analysis" kitobida keltirilgan bo'lib, u diskursni "bir vaziyatda bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan vujudga keltiriladigan og'zaki yoki yozma gaplar" deya tushuntiradi (Harris 1952:3).

Shuningdek, diskursni social context (ijtimoiy muhit) bilan bog'lagan bir qancha qarashlar ham mavjud bo'lib, shunday fikrlardan biri tilshunos olim T.A.Van Dejkga tegishlidir: "Diskurs turli xil ijtimoiy subyektlarni (masalan, so'zlovchi va tinglovchi yoki yozuvchi va o'quvchi) o'z ichiga oladigan murakkab kommunikativ jarayondir, ya'ni diskurs aniq bir vaqt, makon va vaziyat orqali yuzaga keladi. U odatda interaktiv munosabatlarga asoslangan bo'lib, verbal yoki noverbal nutq (imo-ishoralar, yuzdagi ifodalar) orqali ifodalanadi (Van Dijk T. A 1998:194). Demak, olimning fikriga ko'ra diskursni keng ma'noda do'stlar bilan quriladigan kundalik suhbat, shifokor va bemor; o'quvchi va o'qituvchi; prokuror va sudlanuvchi o'rtasidagi dialoglar deya tushunishimiz mumkin. Ammo, boshqa tilshunoslardan farqi o'laroq M. Stubbs diskursni ijtimoiy kontekst doirasida asosiy uchta xususiyatini ajratib ko'rsatadi: 1) rasmiy ma'no jihatidan-gapning ustki sathidagi til birligi; 2) informativ ma'no jihatidan- diskurs ijtimoiy kontekstda ishlatiladigan til bilan bog'liq; 3) shakl jihatidan-so'zlovchilar o'rtasidagi interaktiv nutq, ya'ni dialog (1983: 1). Birinchi va ikkinchi xususiyatlarga ko'ra aytishimiz mumkinki, diskurs ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan til birligidir. Diskursni lingvistik matn sifatida o'rgangan tilshunoslardan biri T.M.Nikolayeva esa uni ko'p ma'noli so'z deya ta'riflab, bir nechta ma'nodoshlarini keltirib o'tadi (11):

- (a) Dialog;
- (b) Matnning og'zaki shakli;
- (c) Ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan gaplar yig'indisi;
- (d) Og'zaki yoki yozma ravishdagi nutqiy harakat, ish.

Guvohi bo'lganimizdek, diskurs asosan og'zaki yoki yozma ko'rinishda nutqiy jarayonda harakat tarzida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunga qadar diskurs tushunchasi haqida ko'plab fikrlar yuritilganiga qaramay, ularning ba'zilarida diskursning tilshunoslik obyekti bo'la olishiga shubha bilan qaraladi va Y.S. Kubryakova "Diskursning hozirgi tilshunoslik sohasida umumiy ma'qullangan aniq ta'rifi yo'qligi"ni ta'kidlab o'tgan (Kubryakova 2000:6). Irina Oukhvanova diskurs so'zini asl ma'nosini ochib berish maqsadida turli xil lug'atlarga murojaat qilib, uni shunday keng va tor doirada ta'riflaydi (58): "keng ma'noda diskurs turli xil mazvular jamlamasi bo'lsa, tor doirada "o'zaro aloqa, muloqot, harakat" demakdir". U, shuningdek, diskursning to'rt xil oppozitsiyasini keltirib o'tadi:

- (1) Diskurs & gap-diskurs gapga teng emas va gapdan kengroqdir;
- (2) Diskurs & til-diskurs tilga teng emas, ya'ni til ma'lum bir ma'nolar yig'indisi, diskurs esa real vaziyatdir. Agar til jamiyat a'zolari tomonidan ulashiladigan ijtimoiy hodisa bo'lsa, diskurs ulashilmaydi, balkim foydalaniladi.
- (3) Diskurs & matn-diskurs matn emas, balkim kontekst(nutqiy vaziyat)da qo'llaniladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, matn va diskurs tushunchalari bir deb qarash yoki alohida tushunchalar sifatida tushunish ko'pdan buyon tilshunoslar e'tiborida bo'lib kelgan. N. D. Arutyunova diskurs va matn alohida lingvistik terminlar ekanligi va diskurs harakatdagi matn

bo'lib, o'z ichiga ham madaniy, ham ijtimoiy omillarni qamrab olishini ko'rsatib o'tadi (136-137). Diskurs va matn atamalarini farqlagan mashhur lingvistlardan yana biri H.Haberland bo'lib, u matn turg'un, tayyor mahsulot sifatida turli joy va turli sharoitda yaratilishi mumkin, diskurs esa aniq joy va vaqtda kechayotgan holat deb hisoblaydi (1999: 914).

Diskurs sotsiolingvistik jihatdan asosan ikkita qismga bo'linadi: so'zlashuv va institutsional diskurs (Makarov.M.L:195). Bunday bo'linishning asosiy sababi esa kommunikativ aktning tuzilishi va tashkil topishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham, institutsional diskurs nisbatan cheklangan bo'lib, ishtirokchilar vositalar tanlashda kamroq erkin va qat'iy belgilangan qonun-qoidalarga bo'ysunadilar. So'zlashuv diskursida esa aksincha bo'lib, kommunikatorlar mavzuni o'zgartirish, bir-birining gapini bo'lish va vositalarni tanlashda erkindirlar. I.V.Karasik institutsional diskursni ham bir qancha turlarga ajratadi: siyosiy, tibbiy, yuridik, diniy, reklama, sport, ilmiy, pedagogik diskurs va hokazo ((Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград : Перемена, 2002).

Shunday qilib, yuridik diskurs institutsional diskurs turlaridan biri bo'lib, sud tuzilmalari (masalan, sud zalida), qonunlarni belgilaydigan huquqiy matnlar, shuningdek, yurist va mijoz o'rtasidagi muloqotni o'z ichiga oladi. Ushbu soha fan sifatida aniqlik va to'g'ri fikrlilikni talab qiladi. Normativ hujjatlarda ma'lumot qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi zarur. Aks holda, noaniqlik qonundagi bo'shliq sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa: Yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, diskurs tushunchasi abstrakt tushuncha bo'lib, asosan nutqiy jarayonning aniq bir vaqt va makonda sodir bo'lishini talab qiladi va har qanday og'zaki yoki yozma nutq diskurs bo'lishi uchun nutqiy harakat amalga oshirilishi kerak. Yuridik diskurs esa o'z ichiga barcha yuridik va qonunchilik doirasidagi nutqiy harakatlarni qamrab oladi.

Adabiyotlar

1. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека [Текст] / Н. Д. Арутюнова. – М. : «Языки русской культуры», 1999. – 896 с.
2. Dijk, V. T. A. (1998). Ideology. A Multidisciplinary Approach. Sage. (1st ed., p. 194).
3. Goodrich, P. (1992). Legal discourse: studies in linguistics, rhetoric and legal analysis Macmillan. (p. 135).
4. Harris, Z. S. (1960). Structural linguistics. Chicago: University Of Chicago Press.
5. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс [Текст] / В. И. Карасик. – Волгоград : Перемена, 2002. – 477 с.
6. Косоногова, О. В. Характеристики юридического дискурса: границы, содержание параметры [Текст] / О. В. Косоногова // Гуманитарные науки: Историческая и социально-образовательная мысль. – 2015 – Том 7, №1. – С. 61–68. 16
7. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1995. - 24 б.
8. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикасида қонунчилик техникаси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 1996.
9. M. Stubbs, M. W. (1983). Discourse analysis: the sociolinguistic analysis of natural language. Oxford: Basil Blackwell.
10. Макаров, М. Л. Основы теории дискурса [Текст] / М. Л. Макаров. – М. : ИТДГК «Гнозис», 2003. – 280 с.
11. Ступникова, Л. В. Сущность и особенности юридического дискурса английского права [Текст] / Л. В. Ступникова // Вестник МГЛУ. – 2007. – №519. – С. 213–220.
12. Ускова, Т. В. Когнитивно-дискурсивные особенности англоязычной юридической терминологии [Текст] : автореф. дис. ... канд. фил. наук : 10.02.04. / Ускова Татьяна Владимировна. – М., 2008. – 19 с.

СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1